

2020- yil yanvar-may oylarida Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020-yil yanvar-may oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

- Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.
- Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni - 12 254 birlikda

Ularning umumiy sonidagi ulushi - 65,6 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari - 143,9 %



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi- 65,6 %, sanoat - 15,8 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 10,5% ga yetdi va atigi 8,1 % i qurilish sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (49,3%) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 10,2 % ni tashkil etdi.




Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,7 % ga yetdi. Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,4 % ga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2019- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 8514 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 35,5 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 12,4 %, tashish va saqlash - 6,1 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,8 %, axborot va aloqa - 1,9 % hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 41,3 % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3 740 taga ko'paydi.


Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- iyun holatiga ko'ra ularning soni 1975 taga oshdi.



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi, % da

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasida yuqori o'sish – 99,8 % ekanligi kuzatildi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3 015 taga ko'paydi va 6 036 taga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 18,5 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 195 taga ko'paydi va 1 249 tani tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagi bo'lib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish hamda insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2020- yil 1- iyun holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi 82,8 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- iyun holatiga ko'ra, ularning ulushi 75,8 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 694 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 10 146 tani tashkil etdi va o'sishi esa 57,3 % ga oshdi. Faoliyat o'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 60,1 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxonalar va tashkilotlar sonining ulushi 57,6 % ekvivalentida qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rnini juda katta ahamiyatga egadir.

Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish hamda, unga qarshi kurashish maqsadida insonlarning harakatlanishiga cheklolar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilmagan choralar ko'rildi. Bu esa deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishiga olib keldi va o'z navbatida xizmatlar sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 041,8 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi bor yo'g'i 191,4 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,2 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati
100,2 %

Hajmi 191,4
mlrd. so'mga
oshdi

Xizmatlar hajmi
2 041,8
mlrd. so'm

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.


Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2020- yil yanvar-may oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	2 041,8	100,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	98,3	114,2
Moliyaviy xizmatlar	490,4	140,4
Transport xizmatlari	341,0	87,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	303,2	92,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	76,3	83,8
Savdo xizmatlari	628,0	91,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	33,1	80,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	69,6	97,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	25,2	95,1
Ijara xizmatlari	31,1	85,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	27,0	83,0
Shaxsiy xizmatlar	39,8	82,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	99,1	120,3
Boshqa xizmatlar	82,9	86,1


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining tarkibi, % da
(2020- yil yanvar-may oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi 30,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (24,0 %), transport xizmatlari (16,7 %) va me'morchilik sohasidagi xizmatlar (4,9 %) da qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari - 1,3 %, ijara sohasidagi xizmatlar - 1,5 % va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar - 1,6 % ulushni qayd etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,
2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan % da
(2020- yil yanvar-may oylarida)**



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (40,4 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (20,3 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (14,2 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan bozor xizmatlari hajmi sezilarli darajada (19,4 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, shaxsiy xizmatlar (18,0 % ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (17,0 % ga), yashash va ovqatlanish xizmatlari (16,2 % ga), ijara xizmatlari (14,9 % ga), transport xizmatlari (12,9 % ga), savdo xizmatlari (8,7 % ga) shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (4,9 % ga) da pasayish kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Savdo bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


2020- yil yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 30,8 % ni tashkil etib, bu 628,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismiga, aniqrog'i 80,5 % iga to'g'ri keladi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yil yanvar-may oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari
(avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,7 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,8 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar

(2020- yil yanvar-may oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi
490,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.**



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi
24,0 % ni tashkil etdi.**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan

**166,9 mlrd. so'mga hajmning ko'payishi
kuzatildi.**



Ularning o'sishi 40,4 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yil yanvar-may oylarida)

93,8 %

Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan
tashqari moliyaviy
xizmatlar

4,5 %

Sug'urta
bo'yicha
xizmatlar

1,7 %

Yordamchi
moliyaviy
faoliyat

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,8 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 4,5 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,7 % ni tashkil etadi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda - 16,7 %.

Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yil yanvar-may oylarida)




Quruqlik transporti ulushi umumiy transport xizmatlari hajmida 90,5 % ni tashkil etyapti.

Saqlash va yordamchi xizmatlar hajmi transport xizmatlari tarkibida 8,7 % ni egallaydi.

O'z navbatida pochta va kurerlik xizmati ulushi umumiy xizmatlari hajmida 0,8 % ga etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yil yanvar-may oylarida)



2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan

2020- yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 98,3 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 114,2 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinisdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yil yanvar-may oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,3 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 1,1 %, noshirlik xizmatlari - 0,6 % va boshqa aloqa xizmatlari - 0,1 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.



Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-may oylarida)




2020- yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 69,6 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,9 % ni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yil yanvar-may oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 83,8 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 76,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan. Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 3,7 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2020- yil yanvar-may oylarida)




2020- yil yanvar-may oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 21,5 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalarini, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
(2020- yil yanvar-may oylarida)

2020- yil yanvar-may oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 25,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,2 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,1 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 044,2 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,5 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 2044,2 ming so'm

2019 yilning yanvar-may oylariga nisbatan



Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

79-223-63-31